



Received: November 17, 2022  
Accepted: December 22, 2022  
Available online: December 25, 2022

## Yarash Ro‘ziyev

Buxoro davlat universiteti dotsenti, filologiya  
fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
Buxoro, O‘zbekiston

### NOQARDOSH TILLARDA O‘ZLASHTIRMA XABAR VA UNING QIYOSIY TAHLILI

#### ANNOTATSIYA

O‘zbek adabiy tilida o‘zlashtirishning ikki turi mavjud. Birinchi turda ko‘chirma gapdan sintaktik yo‘l bilan hosil bo‘luvchi o‘zlashtirish nazarda tutiladi. O‘zlashtirishning bu turida ko‘chirma gap ham shaklan, ham mazmunan o‘zgarishga uchraydi. Ko‘chirma gap shaklan birikma, aniqrog‘i, birikmali to‘ldiruvchiga aylanadi. Shunga ko‘ra fikr anglatuvchi til birligi murakkab tushuncha bildiruvchi birikma shaklini oladi. Bilvosita gapning ikkinchi turi morfologik vositalar yordamida ifodalanadi, fe‘l leksema + -(i)bdi, -adi (-ydi), -gan, -ganekan, -(a)r ekan, -(a)r emish, - sin ekan kabi va hokazo. Natijada, neytral, oson aniqlashtiruvchi va ta‘kidlovchi matndagi bilvosita nutqning morfologik vositalari tahlil qilinadi ekan, bu vositalardagi eshitish ma‘nosi bir xil emasligi aniqlandi.

Maqolada o‘zbek tilida o‘zlashtirishni ifodalovchi morfologik vositalarning o‘zlashtirishni bildiruvchi sintaktik vositalar bilan o‘zganing nutqini o‘zlashtirib bayon etishi jihatidan o‘xshashligi, morfologik vositalarning sintaktik vositalardan xabar manbasining ko‘rsatilmaligi va nutq fe‘llarining qo‘llanmasligi bilan farqlanishi ko‘rsatilgan. Rus tilida o‘zlashtirma nutq faqat sintaktik va lug‘aviy vositalar yordamida ifodalanadi. Nemis va o‘zbek tillarida o‘zlashtirish ham sintaktik ham morfologik vositalar orqali ifodalanadi. Shu bois o‘zbek tilidagi ikkinchi tur o‘zlashtirma ifodalarni tarjima qilishda mazkur vositalardan bittasi yoki hammasi ishtirok etadi. Shuni inobatga olib, ushbu maqolada birinchi bosqichda amalga oshirilgan ilmiy va amaliy ishlarni qisqacha sharhlab mavjud adabiyotlarga havola berish bilan kifoyalanamiz. Ikkinchi bosqichda esa kengroq fikr yuritib o‘zlashtirma xabarning badiiy matnda qo‘llanishi rus va nemis

## Yarash Ruziev

Associate Professor, Bukhara State University,  
Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD)  
Bukhara, Uzbekistan  
E-mail: yarash@mail.ru

### INDIRECT SPEECH IN NON-RELATED LANGUAGES AND ITS COMPARATIVE ANALYSIS

#### ANNOTATION

There are two types of an indirect speech in the Uzbek literary language. The first type of an indirect speech is formed syntactically. With this type of an indirect speech, the sentence changes both in form and content. An indirect speech turns into a compound, more precisely, into a compound addition. In accordance with this, a linguistic unit expressing an idea takes the form of a compound expressing a complex concept. The second type of an indirect speech is expressed using morphological means, such as a verb lexeme + -(i)bdi, -adi (-ydi), -gan, -ganekan, -(a)r ekan, -(a)r emish, - sin ekan, etc. While analyzing the morphological means of an indirect speech in a neutral, easily clarifying and emphasizing text, it was found that the meaning of hearing in these means is not the same.

The article reveals the similarity of morphological and syntactic means of expressing an indirect speech in the Uzbek language from the point of view of the possibility of expressing someone else’s speech. The second type of an indirect speech differs from the first one in the absence of a source of the message and the non-use of speech verbs. An indirect speech in Russian is expressed only with the help of syntactic and lexical means. In German and Uzbek, an indirect speech is expressed both by syntactic and morphological means. Consequently, in the translation of the second (morphological) type of an indirect speech from Uzbek into other languages, one or all of these means are involved. Taking this into account, in this article we will limit ourselves to brief comments on the scientific and practical work carried out at the first stage, referring to available sources. At the second stage,

tillari bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Tahlil uchun misollar A.Qahhorning “Sinchalak” asari va uning ruscha, nemischa tarjima matnlaridan olindi.

**Kalit so‘zlar:** o‘zga nutq, ko‘chirma nutq, o‘zlashtirma nutq, matn, mikromatn, yaxlitlik, muallif nutqi, morfologik vosita, nutq fe‘li, til qurilish.

the use of an indirect speech in a literary text will be compared with the Russian and German languages. Examples for analysis are taken from the work of A.Kakhar “Sinchalak” and its Russian and German translations.

**Key words:** someone else’s speech, direct speech, indirect speech, text, microtext, integrity, author's speech, morphological means, speech verb, language structure.

## KIRISH

Bundan ikki asr oldin Ovrupoda til ruhiy-ijtimoiy hodisa ekanligi haqida ta’limot yaratilgan. Mazkur ta’limot umumiy va nazariy tilshunoslik asoschisi Vilhelm fon Humbolt (Wilhelm von Humboldt, 1767–1835) tomonidan yaratilgan. Ulug‘ olim o‘z ta’limotini Yava orolidagi kavi tili xususida nomli uch jildli asari muqaddimasida bayon qilgan. Muqaddima 1830-1835-yillarda yozilgan bo‘lib insoniyat tili qurilishining rangbarangligi va uning bashariyat ruhiy taraqqiyotiga ta’siri [Humboldt, 1907] deb nomlangan. Ushbu ta’limot jahon tilshunosligida e’tirof etilgan bo‘lib turlicha oqim, yo‘nalish, maktablarning paydo bo‘lishi uchun asos vazifasini bajargan va shunday bo‘lib qolmoqda.

V.Humbolt tilni (1) mazmun-mohiyatiga ko‘ra ruhiy faoliyat, ruhiy quvvat, (2) tuzilishiga ko‘ra butunlik, yaxlitlik (tizim, sistema) va (3) vazifasiga ko‘ra ijtimoiy hodisa deb atagan [Gumboldt, 1984; 69, 70, 72]. Ruhiy quvvat deganda atoqli olim tilni xalq ruhiy quvvatining ifoda vositasi ekanligini nazarda tutgan. Butunlik yoki tizim deganda esa tilni o‘zaro uzviy bog‘langan qism(unsur)larga ega yaxlitlik deb uning tuzilishi, tartiboti (strukturasi) xalqning ruhiy quvvatiga bog‘liq ekanligini nazarda tutadi. Shu bilan birga, xalqlarning ruhiy quvvati (tafakkur tarzi) bir xil bo‘lmaydi, binobarin, tillarning qurilishi ham bir xil emas, deb uqtiradi atoqli olim. Ta’rifning uchinchi qismidan til jamiyat a’zolariga o‘zaro muloqot qilish hamda bir-birini tushunish imkonini beradigan bebaho xilqat ekanligi anglashiladi. Ko‘rinadiki, mukammal ta’rifning dastlabki ikki qismida tilning shakl va mazmuni, zohir va botini boshqacha aytganda surat va siyrati tavsiflangan bo‘lsa oxirgi qismida uning qo‘llanishi ya’ni ish ko‘rish doirasi bayon qilingan.

Shuni ta’kidlash joizki, nemis tilshunosligida o‘zga nutq turli oqim, maktab va yo‘nalishlarda ham nazariy, ham amaliy jihatlardan har tomonlama tadqiq-u talqin tasnif qilingan. Ushbu mavzu yillar davomida uzluksiz faqat Germaniyada emas, boshqa mamlakatlar jumladan, Rossiya va O‘zbekistonda ham o‘rganilgan va o‘rganilmoqda. Shu sababli mavzuga oid adabiyotlar shu qadar ko‘pki, ulardan faqat ayriminagina sharhlash imkoni bor. Avvalo, ko‘chirma va o‘zlashtirma nutqning til tizimidagi maqomiga oid adabiyotlarga to‘xtalamiz. Shu munosabat bilan grammatik kategoriyalar tasnifiga nazar tashlashga to‘g‘ri keladi. Professor V.G. Admoni grammatik kategoriyalarni ikki turga ajratadi. Ularni mantiqiy-grammatik va kommunikativ-grammatik kategoriyalar deb nomlaydi [Admoni, 1973; 14; Admoni, 1972; 11]. Birinchi tur kategoriyalar obyektiv voqeilikdagi inson ongida aks etadigan

mavjudot (predmet), hodisa, jarayon va munosabatlarni umumlashgan tarzda ifodalaydi. Jumladan, o'ning son va kelishik kategoriyalari ana shunday xususiyatga ega. Ikkinchi tur kategoriyalar esa nutq mazmuni bilan kommunikatsiya (muloqot) jarayoni orasidagi murakkab va uzviy bog'lanishni umumlashgan tarzda ifodalab, uni shakllantirishga xizmat qiladi. Fe'ning mayl, zamon va shaxs kategoriyalari shunday xususiyatga ega.

K.G. Krushelnitskaya grammatik kategoriya va uning zamiridagi umumlashgan ma'nolarni uch turga bo'ladi. Birinchi tur grammatik ma'nolar mavjudot va hodisalar orasidagi obyektiv munosabatlarni ifodalaydi. Bular qatoriga o'ning son kategoriyasini shakllantiradigan miqdoriy munosabat ya'ni birlik va ko'plik ma'nolari kiritiladi. Ikkinchi tur umumlashgan ma'nolar gap mazmunining obyektiv voqelikka munosabatini bildiradi. Fe'ning mayl, zamon va shaxs kategoriyalari shu siraga mansub deyiladi. Uchinchi tur grammatik ma'nolar so'zlovchining bayon qilingan fikrga munosabatini bildiradi. Bu o'z navbatida uchga bo'linadi: 1) *xabar, so'roq va buyruqni ifodalovchi kommunikativ maqsad kategoriyasi*; 2) eski (tayanch) xabar, yangi xabar ma'nolarini anglatuvchi *kommunikativ vazifa kategoriyasi*, boshqacha aytganda, gapning aktual bo'linishi; 3) artikl orqali ifodalanadigan aniqlik va noaniqlik, modal so'zlar vositasida ifoda etiluvchi qat'iylik va taxmin ma'nolaridir [Krushelnitskaya, 1967].

Mazkur umumlashgan ma'no va grammatik kategoriyalarning barchasi gapga xos deb qaralgani uchun ham gap doirasida tadqiq va tahlil qilinadi. Bu o'sha davrda eng yirik kommunikativ birlik gap deb hisoblangani bilan izohlanadi.

Endi nazariy tadqiqotlarning amaliyotga tatbig'i xususida qisqacha fikr yuritimiz. Avvalo, 20-asrning 50-yillarida nemis tili grammatikasi bo'yicha o'rta maktab o'qituvchilariga mo'ljallangan o'quv qo'llanmaga murojaat qilamiz [Guliga & Natanzon, 1957]. O'zga nutq qo'llanmaning qo'shma gaplar sintaksisi deb nomlangan qismida ko'chirma va o'zlashtirma nutqdan tashkil topgan gaplar sarlavhasi ostida berilgan. Diqqatga sazovor jihati shuki, mualliflar haqiqat qiyosda ko'rinar degan naqlga amal qilib, o'zga nutqning ikkala turini o'zaro ayni paytda rus tili bilan qiyoslab bayon qilgan. Bu esa ular orasidagi o'xshashlik va farqni yanada yaqqol namoyon bo'lishiga imkon bergan. Mavzuning nomlanishidan yana shu narsa ayon bo'ladi, *ko'chirma nutq va o'zlashtirma nutq* atamaları tarkibidagi ikkinchi so'z o'rniga *gap* atamasini qo'llash ham mumkin. Chunki gap faqat lisoniy emas, nutqiy hodisa bo'lganidan nutqning bir parchasi, bo'lagidir. Shu bois xorijiy filologiya ixtisosligining o'zbek guruhlariga mo'ljallangan *nemis tili grammatikasi* darsligida sarlavhada ham matnda ham faqat *gap* atamasi qo'llanilgan [Saidov & Zikrillayev, 1973].

Duden grammatikasida o'zlashtirma nutq talqini qo'shma gap mavzusi ostida berilgan bo'lib sakkiz sahifani band qilgan. U shaklan ikki turga ajratiladi: 1) ergash gap; 2) mustaqil gap. Mazmunan o'zlashtirma nutqning to'rt turi mavjud deb ko'rsatiladi: 1) o'zlashtirma xabar (indirekte Aussage); 2) o'zlashtirma so'roq (indirekte Frage); 3) o'zlashtirma buyruq (indirekte Aufforderung); 4) o'zlashtirma tilak-istak (indirekte Bitte) [Eisenberg P. va boshq., 2008].

Hozirgi zamon rus adabiy tilida o'zga nutq dastlab 20-asrning 50-yillaridan gap (jumla) doirasida o'rganila boshlandi. Ammo tadqiqotchilarning bu boradagi qarashlari va munosabati bir xil emas. Jumladan, prof. N.Y. Shvedova mas'ul muharrirligida nashr etilgan hozirgi zamon rus tilining akademik grammatikasida ushbu mavzu haqida umuman ma'lumot berilmagan. Akademik V.V. Vinogradov tahriri ostida chop etilgan nashrda mazkur mavzu aksincha har jihatdan chuqur tadqiq etilgan [Vinogradov V., 1960]. Shuni ta'kidlash joizki, mavzu tadqiqida rus adabiy tili qurilishining o'ziga xos grammatik, leksik va intonatsion xususiyati o'z aksini topgan.

Ilmiy grammatikalarda ham, darslik va qo'llanmalarda ham o'zga nutq mavzusi sintaksisning qo'shma gap qismi oxirida beriladi. Biroq mavzuning nomlanishi bir xil emas. Chunonchi, pedagogika oliygohi talabalariga mo'ljallangan qo'llanmada o'zga nutq uch turga ajratiladi: 1) ko'chirma nutq; 2) o'zlashtirma nutq; 3) o'ziniki bo'lmagan ko'chirma nutq [Gvozdev A., 1968]. Ilmiy grammatikada esa mazkur bo'linish sarlavhada o'z ifodasini topgan [Vinogradov V., 1960; 402].

O'zbek tilshunosligida ham germanistika va rus tilshunosligidagidek o'zga nutq turlarini tadqiq qilish ikki bosqichdan iborat. Birinchi bosqich bir necha o'n yil davom etadi. Bu bosqichda o'zga nutqning ikkala turi ham rus tilshunosligidan nusxa ko'chirish orqali boshqacha aytganda ruscha qolip va andozalarga asoslanib o'rganiladi. Natijada tillardan bir yoki ikkitasiga oid mushtaraklik hamda farq va tafovut mavjudligi ayon bo'ladi. Jumladan, o'zbek tilshunosligida germanistikadagidek o'zga nutqning kategorial mohiyati tadqiq etilmagan.

Nemis tilida o'zga nutqning ikkala turida ham tinish belgilarining ishlatilishi rus tilidan qisman farq qiladi. O'zbek tilida esa rus tiliga aynan mos keladi.

Ayrim atama qo'llanishida ham tafovut bor. Germanistika va rus tilshunosligida nutq (Rede, rech) atamasi ishlatiladi. O'zbek tilshunosligida esa birinchi bosqichda bu ma'noda asosan gap qisman jumla atamasidan foydalaniladi.

Yana bir farq shuki, o'zlashtirmalikning morfologik yo'l bilan hosil bo'lishi boshqacha aytganda, o'zlashtirmalikning o'zbek adabiy tili qurilishiga xos xususiyatini ifoda etuvchi o'ndan ortiq shakl birinchi bosqichda tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qoladi.

Birinchi bosqichda o'zga nutq yuqorida aytilganidek gap doirasida shakldan mazmunga tamoyili asosida tadqiq talqin qilinadi. Natijada ilmiy maqola, monografiya, risolalar [Asqarova, 1961; Namozov, 1975; Sharipov, 1955; Nazarova, 1959] bosilib chiqadi, dissertatsiyalar [Isroilov, 1971; Saidniyazov, 1975] yoziladi. Bundan tashqari, ushbu mavzu o'zbek tilining ilmiy akademik grammatikalari [Kononov, 1960; Nurmonov va boshq., 1992; Mahmudov va boshq., 1995; Hoz. o'zb. ad.t., 1966; O'z.t.gram, 1976] hamda oliygoh filologiya fakultetiga mo'ljallangan darslik va qo'llanmalar [G'ulomov, 1987; Abdurahmonov, 1958; Asqarova, 1960]da turli darajada yoritiladi. O'zlashtirmalikning o'zbek tili sintaktik qurilishiga xos-xos emasligi masalasida bahslashildi [Iminov, 1990; Nomozov va boshq., 1993]. Mazkur ishlarda o'zga gapning tuzilishi, mazmuni va qo'llanishiga nisbatan mualliflarning munosabati bir xil emas. Chunonchi, ayrim tilshunosning fikriga ko'ra, ba'zi ko'chirma gap avtor gapiga nisbatan mustaqilligini saqlaydi. Shu bois uni bog'langan

qo'shma gap deyish mumkin. Ikkinchi xil ko'chirma gap esa avtor gapini izohlab keladi va unga nisbatan ergash gap vazifasini bajaradi. Binobarin, bunday ko'chirma gap ergash gapga aylangan bo'ladi. Akademik G'. Abdurahmonov fikriga ko'ra, o'zlashtirmalikning birinchi turi zohiran sodda, mazmunan qo'shma gapga teng keladi. Shunga ko'ra, unda ikkita fikr ifodalanadi. Bu ayniqsa noqardosh tillar bilan qiyoslaganda yaqqol seziladi: *Kitob olganini aytdi. – On skazal, chto (on) pokupal knigu. – Er sagte, daß er ein Buch gekauft hat.* O'zlashtirma gapning oliy o'quv yurti darsligida sodda gap shaklida bo'lishi e'tirof etiladi-yu qo'shma gap bahsida beriladi [G'ulomov, 1987]. Bu rus tiliga taqlid oqibatidir. Chunki rus tilida o'zlashtirma gap ergashgan qo'shma gap shaklida bo'ladi.

### TADQIQOT METODLARI

Professor Sh. Safarov istiqlol yillarida til nazariyasi va uning metodologiyasiga doir salmoqli monografiya chop ettirdi. Ushbu monografiya eng avvalo, shunisi bilan diqqatga sazovorki, unda generativ tilshunoslik, mental lingvistika, sistem va sinergetik tafakkur bog'liqligi hamda boshqa zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlarining metodologik asoslari umumiy tilshunoslikning "og'riq"li jabhalari bo'lib, ular milliy tilshunoslikda ilk bor muhokamaga qo'yilgan [Safarov Sh., 2015].

O'zbek tilshunosligida 80yillardan ayrim tadqiqotda metodologik asos sifatida dialektik materializm boshqacha aytganda, ateistik dunyoqarashdan voz kechiladi [Zikrillaev, 1990; Ruh va til, 2018]. Tilshunoslikka doir tadqiqotlarning metodologik asosini belgilash maqsadida Qur'oni karimdagi ruh va til hamda umumiy va nazariy tilshunoslik asoschisi V.Humboltning ruh va til haqidagi ta'limotiga murojaat qilinadi. Natijada til ruhiy-ijtimoiy xilqat boshqacha aytganda, idealistik-materialistik dunyoqarash deb e'tirof etiladi. Modomiki, V.Humboltning ta'limotiga asosan tilning qurilishi xalqning ruhiy quvvatiga bog'liq ekan tillarning bir-biri bilan o'xshash va farqli jihatini aniqlash maqsadida qiyosiy-tipologik metoddan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Fe'l va otning o'zagini to'rt tilda chog'ishtirish natijasida o'zbek va arab tili qurilishining o'ziga xos (bosh) xususiyati tejamkorlik deb ataladi. Bunda qo'shimcha va boshqa lisoniy birliklarning tejab ishlatilishi nazarda tutiladi. Rus va nemis tillarida buning aksi (notejamkorlik) ustuvor deb uqtiriladi.

Tadqiq manbayi haqida to'liqroq va to'g'riroq bilim hosil qilish maqsadida uzvli (komponent), kontekstual va matniy tahlil usullaridan foydalandik. Chunki bunday yondashuv ruscha qolip va andozalardan amalda voz kechish imkonini beradi. Boshqacha aytganda, bunday holda til birliklarining lisoniy va nutqiy yoki paradigmatic va sintagmatic xususiyatini bir muncha aniq belgilash mumkin bo'ladi.

Uzvli tahlil til birliklari shakliga ko'ra ham mazmuni jihatdan ham bir yoki birdan ortiq bo'lak (sema) dan tarkib topadi, degan g'oyaga asoslanadi. Semalardan ayrimini aniqlashda til birligining o'zi kifoya qilsa ayrimi gap doirasida belgilanadi. Bunday holda gap kontekst deb ataladi.

Kontekstual tahlilda, jumladan, til birligi va kategoriya (maydon) a'zolarining paradigmatic xususiyati gap (nutq)da qay darajada voqelanishi hamda nutq (lisoniy va g'ayrilisoniy vositalar) ta'sirida qanday o'zgarishini kuzatish nazarda tutiladi.



Shunga ko‘ra tadqiqotchining butun diqqat-e‘tibori til birligining kontekst bilan turlicha munosabatini o‘rganishga qaratiladi. Ana shu munosabatni bayon qilish uchun kontekst (1) hajm va (2) xususiyatiga ko‘ra turlarga ajratiladi. Hajm jihatdan kontekst uchga bo‘linadi: 1) minimal kontekst; 2) mikrokontekst; 3) makrokontekst. Minimal kontekst o‘zbek tilida eng kichik gap (birgina o‘zak)dan iborat bo‘ladi. Nemis va rus tillarida odatda ikkita so‘z (ega va kesim)dan tuziladi. Mikrokontekst uchala tilda ham bitta sodda gap yoki bitta qo‘shma gapdan tarkib topadi. Makrokontekst tarkibiga ikkita sodda, ikkita qo‘shma gap yoki undan ortiq gap kiradi. Xususiyatiga ko‘ra kontekstning lisoniy va nolisoniy kontekst kabi turlari mavjud. Til birligi lisoniy kontekstda lug‘aviy va boshqa vosita bilan, nolisoniy kontekstda ijtimoiy omil, mantiqiy ayonlik, vaziyat kabilar bilan munosabatga kirishadi. Shu munosabatning xususiyatiga ko‘ra kontekst (1) betaraf (neytral), (2) qulay, (3) konkretlashtiruvchi va (4) noqulay kontekst kabi ko‘rinishga ega.

Kontekstual tahlil til birligining o‘ziga xos (lisoniy, paradigmatic) xususiyati yaxlit bo‘lmay sema (uzv), bo‘laklardan tarkib topganligini ko‘rsatadi. Ana shu eng kichik mazmuniy uzv tadqiqotlarda sema, belgi, semantik belgi, ma‘no deb nomlanadi. Til birligi (shakl)ga xos jami semani nomlashda paradigmatic mazmun, semantik mazmun, grammema kabi atamalardan foydalaniladi. Til birligining lisoniy (paradigmatic) xususiyati daxldor (relevant) semalardan iborat. Daxldor sema ikki yoki undan ortiq (shakl va hokazo)ni farqlaydi, farqlashda ishtirok etadi yoki ular uchun umumiy (mushtarak) bo‘ladi. Shunga ko‘ra, til birligining paradigmatic xususiyati farqlovchi va mushtarak semalardan tarkib topgan bo‘ladi. Daxldor sema miqdori til birligi (shakl)ning o‘zi mansub kategoriya (maydon)dagi boshqa shakllar bilan munosabatiga bog‘liq.

Kontekstual tahlildan kategoriya (maydon) a‘zolari uchun daxldor semalarning belgilanganlik (mavjudlik) darajasi bir xil emasligi ayon bo‘ladi. Kategoriya a‘zolarida muayyan daxldor semaga besh xil munosabat mavjud bo‘ladi. Bu munosabatlar ayrim tadqiqotda ishoralar yordamida ko‘rsatiladi [Zikrillaev, 1990].

Mazkur munosabatlar asosida daxldor semalar besh turga ajratiladi: 1) belgilangan; 2) betaraf; 3) ifodalanishi cheklangan; 4) ifodalanmasligi cheklangan; 5) ifodalanmaydigan semalar.

Belgilangan sema kontekst yordamiga muhtoj bo‘lmaydi, uning ifodlanishi uchun kontekst – betaraf bo‘lishi kifoya. Demak, bunday sema betaraf (neytral) kontekstda namoyon bo‘ladi. Betaraf kontekst hajm jihatdan ikki xil ko‘rinishga ega: minimal kontekst va makrokontekst.

Betaraf daxldor sema qulay kontekstda namoyon bo‘ladi. Qulaylik lisoniy vosita yoki g‘ayrilisoniy omil yordamida amalga oshadi. Qulay lisoniy vosita mikro yoki makrokontekstda keladi. Cheklangan semaning ifodalanishi ko‘proq yoki kamroq cheklangan bo‘ladi. Konkretlashtiruvchi kontekstda relevant semalar ta‘kidlanadi yoki ajratib ko‘rsatiladi. Daxldor semalarning yuqoridagi tarzda ifodalanib-ifodalanmasligi til birligi (shakl va hokazo)ning lisoniy (paradigmatic) xususiyatini aks ettirib uning o‘zi mansub kategoriya (maydon)dagi o‘rnini belgilaydi ya‘ni shu kategoriyaga mansub shakllarning o‘zaro o‘xshash va farqli jihatini ko‘rsatadi.

Noqulay kontekstda til birligi (shakl)ning paradigmatic xususiyati turli darajada o'zgaradi. Kontkestdagi noqulay vosita ayni paytda boshqa bir semaning namoyon bo'lishiga qulaylik tug'diradi. Natijada kontekstual ma'nodoshlik hosil bo'ladi.

Matniy tahlil mikromatnning eng yirik sintaktik birligi deb e'tirof etilishi bilan bog'liq. Kontekstmikromatndan farq qiladi. Til birligi bo'lmaganidan tugallik, yaxlitlik unga xos emas. Mikromatn esa shakliy, mazmuniy va kommunikativ yaxlitlikka ega bo'lib tugallangan fikrni ifodalaydi u axborot almashish vositasi vazifasini o'taydi. Kontekstual tahlilda e'tibordan chetda qolgan ayrim hodisa mikromatnda inobatga olinadi. Masalan ikkita mustaqil sodda gapning mazmunan bog'langanligi faqat mikromatnda tahlil qilinadi. Til unsurlaridan ayrimining vazifasi mikromatn tarkibida o'zgaradi. Jumladan, gap va kontekstual tahlilda kirish bo'lak deb qaraladigan so'z va birikmalar mikromatn tarkibida bog'lovchi vazifasini bajaradi. Mikromatn tarkibidagi gaplarning tayanch xabar va yangi xabar bildirib bir-biriga zanjir halqalariday ulanishi chuqur tahlil qilinadi va hokazo [Moskalskaya, 1981; To'xsanov, 1987; Zikrillaev, 2018].

## NATIJA

O'zbek adabiy tilida o'zlashtirmalikning ikki turi mavjud. Birinchi turda ko'chirma gapdan sintaktik yo'l bilan ikkinchi turda esa morfologik yo'l bilan hosil bo'luvchi o'zlashtirish nazarda tutiladi. Tadqiqotimizning ushbu qismida qiyosiy tahlil uchun tanlangan misollar A.Qahhorning "*Sinchalak*" asari va uning ruscha, nemischa tarjima matnlaridan olingan.

**O'zlashtirishning birinchi turi.** O'zlashtirishning birinchi turida ko'chirma gap ham shaklan, ham mazmunan o'zgarishga uchraydi. Ko'chirma gap shaklan birikma aniqrog'i birikmali to'ldiruvchiga aylanadi. Shunga ko'ra fikr anglatuvchi til birligi, murakkab, tushuncha bildiruvchi birikma shaklini oladi. Muallif gapida esa bayon nohissiy bo'lganda faqat uning kesimi vazifasidagi fe'l (*de+di*, *de+gan edi*, *de+r edi* va b.)ning o'zagi o'zgaradi (*ayt+di*, *ayt+gan edi*, *ayt+ar edi* va hokazo). Ko'chirma va muallif gapidan bitta sodda gap hosil bo'ladi. Til faktlariga murojaat qilamiz: "*U har safar devor oshganda, endi kolxozda "katta qoziq" bo'lganini aytib, Mehriqa shon-shuhrat va'da qilar edi* (A.Qahhor "*Sinchalak*", 107).

Ushbu misol murakkab sodda gap, kesimi mazmunan ikkita, uyushib kelgan. Ammo shaklan o'zbek adabiy tilining sintaktik qurilishi inobatga olinganidan birinchi qism predikativ shaklga ega emas (*aytib*). Bu shakl gapning oldingi qismini keyingi qismi bilan bog'lash vazifasini bajaradi. Yozuvchi so'z bog'lovchi (*va*)ni qo'shimcha bog'lovchi (*-ib*) bilan almashtirgan. Natijada ikkala qism uzviy bog'langan. Shu nazarda tutilmasa muallif gapi kesimining to'liq shakli qo'llanib ega, kesim munosabati ifodasini topadi: *U ... aytar edi*. Bundan tashqari, shu bitta gap alohida abzas qilib berilgan. Bu bilan gapda ifodalangan fikrni mikromatnning boshqa qismidan ajratib ko'rsatib unga o'quvchining diqqati jalb qilingan.

Endi ushbu misolning ruscha tarjimasini olib ko'raylik: "*Добавим, что Зулфикаров не ограничивался вещественными дарами. Во время своих посещений он стремился также и поддержат дух Мехри, говоря, что теперь*

он в колхозе большой человек, и намекая при этом, что-нибудь достанутся почести и даже слава” (Abdulla K. “Ptichka-nevelichka”, 206).

Tarjima ham alohida abzas qilib berilgan. Ammo uning hajmi asl nusxadan ikki baravardan ham katta. Buning boisi tarjimadagi birinchi gap asl nusxada yo‘q. Bir necha so‘z va birikma ham qo‘shilgan. Bundan tashqari, o‘zlashtirma gap uyushiq kesimining har biri mustaqil predikativ shaklga ega bo‘lganidan ikkita o‘zlashtirma gap hosil bo‘lgan. Shunga ko‘ra, tarjimada o‘zbek matnga xos tejamkorlik aks etmagan. Ayni paytda asl nusxada abzasning boshida qo‘llangan sifatdosh birikma orqali yozuvchi o‘quvchining diqqatini Zulfiqorov bilan Umidaning munosabati milliy axloq qoidalariga oddiy so‘zlar qo‘llanganidan (*во время своих посещений*) ifoda asl nusxada nazarda tutilgan ta‘sir kuchini yo‘qotgan.

Nemischa tarjimadagi abzasning hajmi ruscha tarjimaga mos. Chunki birinchi gap qo‘shilgan, aniqrog‘i, oldingi abzasdan bu yoqqa ko‘chirilgan. Boshqa ko‘p jihatlar ham rus tiliga aynan o‘xshash. Faqat abzasning o‘zlashtirma gap qismida nemis tilining o‘ziga xos grammatik xususiyati inobatga olingan. Nutq fe‘li (*erklärte*) dan keyin bog‘lovchisiz ergash gap qo‘llangan bo‘lib so‘z tartibi mustaqil sodda gapdagidek. Birinchi kesim prezens kon’yunktiv (*sei*), ikkinchi kesim imperfekt kon’yunktiv shakli orqali ifodalangan: “*Es ist hinzuzufügen, daß Sulfikarows Geschenke nicht nur materieller Art waren. Während seiner Besuche bemühte er sich auch, Mechris moralische Verfassung zu helfen, indem er erklärte, er sei jetzt in der Kolchose ein großer Mann, und irgendwann einmal würde auch ihr, Mechri, mit seiner Hilfe Ehre und Ruhm zuteile*” (Abdulla K. “Sekretär Saida”, 112-113).

Bitta sodda gapda ikkita ko‘chirma gap o‘zlashtirib bayon qilinishi mumkin: “*Qalandarov byuro sostaviga taklif qilgan nomzodlaridan Usmonjon Umarov o‘tmaganini, uning o‘rniga Ismoiljon Normatov o‘tganini eshitib, garchi shu odamni taklif qilish esiga kelmaganiga ichidan achinsa ham, jon-poni chiqib ketdi*” (85).

Bu misolda ham muallif gapining kesimi fe‘l bo‘lsa-da noto‘liq predikativ shaklga ega. Fe‘l o‘zagi xabarning o‘zlashtirilganini anglatib qo‘shimchasi (*-ib*) gapning oldingi qismini muallif gapining to‘liq shakllangan kesimi bilan bog‘laydi (*jon-poni chiqib ketdi*). Muhim farq shuki, ikkita ko‘chirma gap o‘zlashtirilganidan birikmali to‘ldiruvchi ikki marta qo‘llangan. Nutqiy maqsad talabi bilan gap tarkibidagi yetakchi so‘zlarning valentligi voqelanganidan o‘zlashtirma gap ancha kengaygan. Yana o‘zlashtirma xabar abzasning birinchi gapi, abzas esa bo‘lim (VI)ning birinchi abzasi ekanligi nazarda tutilsa unga mantiqiy urg‘u tushgan deyish mumkin. Muallif gapining egasi atoqli ot (Qalandarov) bilan ifoda etilgan bo‘lib tasvirlangan voqeahodisa shu shaxsga daxldor. Nutqiy vaziyat talabiga ko‘ra yozuvchi atigi ikkita gapni alohida abzas qilib Qalandarovning salbiy munosabatini yuqori darajada birinchisida lug‘aviy vosita, ikkinchisida bundan tashqari grammatik vosita hamda nolisoniy omil (yozuvda undov belgisi) orqali ifodalangan. (Bu gap misolda berilmagan).

Ruscha tarjimada asl nusxadagi bayon tarzi o‘zgartirilgan. Oqibatda atigi ikkita gap oltita katta-kichik gapga aylanib o‘n bir qatorli abzas hosil bo‘lgan. Tarjimon abzasning boshidan oxirigacha diqqat-e‘tiborni Qalandarovning salbiy xususiyatini bo‘rttirib bayon qilishga qaratgan. Shu bois to‘rt o‘rinda undov belgisi qo‘yilgan.



O‘zlashtirma xabardan atigi noto‘liq kesim ravishdosh shaklida (*uznav*) berilgan, xolos. O‘zlashtirmalikni ifodalash uchun xoslangan to‘ldiruvchi ergash gapdan foydalanilmagan. Ism familiyasi keltirilgan shaxsdan bittasi tushirib qoldirilgan, ikkinchisining faqat ismi aytilgan va hokazo. Xullas yozuvchining o‘ziga xos uslubidan asar ham qolmagan. Mana o‘sha abzas:

*“Узнав о случившемся, Каландаров был вне себя. В конце концов он, пожалуй, мог бы и сам выдвинут кандидатуру Исмаилджана, черт с ним, пусть бы был в бюро, он, Каландаров, вовсе не такой злопамятный, каким его считают! Его бесил не сам факт избрания Исмаилджана, а то, что он, Каландаров, внес предложение – хорошее или плохое, другой вопрос – и это предложение было отвергнуто! Он внес, а Сауда отвергла! Вес свой гнев он теперь сосредоточил именно и персонально на Сауде. А остальные тоже хороши, уже готово, пошли у нее на поводу! (175-176)*

Nemis tarjimoni ruscha matnga asoslanganidan ko‘pchilik qusur aynan takrorlangan. U ham o‘zlashtirma gap qo‘llamagan. Muallif gapining kesimini to‘liq predikativ shaklda (*erfuhr*) ishlatgan xolos. Yozuvchi uslubiga rioya qilmaslik oqibatida abzasga gap soni rus tilidagidan ham bitta ko‘paygan. Qo‘llangan iboralardan ayrimining ma‘nosi rus tilidagidek asl nusxadan keskin farq qiladi. Masalan: *ichida achinsa ham – chert s nim – der Teufel sollte ihn holen!* va b. Boshqa xato va qusurlar ham borligidan abzasni to‘liq keltiramiz:

*Als Kalandarow erfuhr, was vorgefallen war, geriet er außer sich. Schließlich hätte er auch selbst Ismaildshan – der Teufel sollte ihn holen! – nominieren können. Sollte er doch in die Leitung hinein, er, Kalandarow, war gar nicht so übelnehmerisch, wie man glaubte! Nicht so sehr, daß Ismaildshan gewählt war, brachte ihn in Hornisch als vielmehr das: Er, Kalandarow, machte einen Vorschlag – ob gut oder schlecht, war eine andere Sache –, und dieser Vorschlag wurde einfach abgelehnt! Er machte ihn, und Saida lehnte ihn ab! Sein ganzer Zorn richtete sich jetzt speziell und persönlich gegen Saida, und die anderen, natürlich, die waren gleich bereit, ließen sich von ihr ins Schlepptau nehmen! (75)*

**O‘zlashtirishning ikkinchi turi.** Ikkinchi tur deganda, ko‘chirma gapdan morfologik yo‘l, ya‘ni qo‘shimcha va to‘liqsiz (yordamchi) fe‘l bilan yasaladigan shakllar nazarda, tutiladi. Ma‘lumki, ko‘chirma gapni ikkinchi o‘zlashtirma gapga aylantirganda kesimning qo‘shimchasi va to‘liqsiz fe‘l o‘zgaradi xolos. Ko‘chirma gapning lug‘aviy tarkibi o‘zgarmaydi. O‘zbek adabiy tilida o‘zlashtirmalikning ikkinchi turi fe‘l o‘zagi + *-(i)bdi, -adi (-ydi), -gan, -gan ekan, -(a)r ekan, -(a)r emish, -sin ekan, -sin emish* va b. kabi o‘ndan ortiq morfologik vositalar orqali ifodalanadi. Rus tilida o‘zlashtirmalikni shakllantiruvchi sintaktik vositalar mavjud xolos. Nemis tilida bundan tashqari morfologik vositalar ham bor. Shu bois o‘zbek tilidagi ikkinchi tur o‘zlashtirishni tarjima qilishda mazkur vositalardan bittasi yoki hammasi ishtirok etadi.

O‘zlashtirishning birinchi turidan ko‘ra ikkinchi turi ko‘proq qo‘llanadi. Chunki ikkinchi tur shakllari birinchidan qo‘shimcha va yordamchi fe‘l bilan hosil bo‘lganidan katta jumalarni qisqartirib ixcham bayon qilish imkonini beradi.

Ikkinchidan, o'zlashtirishning birinchi turi sintaktik yo'l ya'ni birikmali to'ldiruvchi va muallif gapidan yasalgani bois ikki qismli bo'ladi. Ko'chirma gap ham shunday, ikki qismdan tarkib topadi. O'zlashtirishning ikkinchi turi bunday emas. Qo'shimcha o'zi qo'shilgan fe'l o'zagini o'zlashtirma gapga aylantiradi. Demak, gap bir so'zli bo'ladi. Jumladan, *-(i)bdi* qo'shilgan fe'l shunday xususiyatga ega. Ularning qisqa shakli shunday: *Olamani dedi. – Olishini aytdi. – Olibdi.* Birinchi va ikkinchi misoldan muallif gapi (*dedi, aytdi*) tushirib qoldirilsa o'zga gaplik xususiyati yo'qoladi. Birinchisi predikativlikni to'liq shakllantirib ikkinchisi to'ldiruvchi bo'lgani uchun tushuncha bildiradi xolos.

Ma'lumki o'zganing fikrini bayon qilib beruvchi shaxs *muallif* (*avtor* yoki *hikoya qilib beruvchi*), deb ataladi. Gapi ifoda qilinayotgan shaxs esa *so'zlovchi* hisoblanadi.

Ikkinchi tur o'zlashtirishda muallif gapi (yoki xabar manbai) alohida vosita orqali ifoda etilib hajman har xil bo'ladi, bir, ikki, uch va undan ortiq so'zdan tarkib topadi. U faqat gap shaklida emas, so'z birikmasi va alohida so'z ko'rinishida ham voqelanadi. Bularning mazmun-ma'nosi ham turlicha bo'lib aniq bir, bir necha shaxs yoki noma'lum shaxs(lar)ni bildiradi. Ayrim holda xabar manbai bo'lgan shaxsni umuman aniqlab bo'lmaydi (ertak, rivoyat va hokazoda shunday).

Muallif gapi (yoki xabar manbai)ning o'rni ham har xil bo'ladi. O'zlashtirma gapdan oldin, keyin, o'zlashtirma fikr bilan bitta sodda gap tarkibida yoki alohida gap shaklida keladi. Nutqiy vaziyat va nutq maqsadi talabiga ko'ra u o'zga gapdan bir yoki bir necha gap, hatto bir necha abzas oldin yoxud aksincha keyin kelishi mumkin. Ba'zan esa qo'llanmay nazarda tutiladi ya'ni tejaladi. Bunga mikro- yoki makrokontekstdagi lisoniy vosita va nolisoniy omillar imkon beradi.

O'zlashtirma xabar haqidagi ma'lumot to'liqroq bo'lishi nazarda tutilsa yoki taqozo etilsa tahlil gap doirasidan tashqariga chiqadi. Aniqroq aytganda kontekstual tahlilga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Tahlilni qo'shimcha bilan hosil bo'ladigan shakllarning biridan boshlaymiz:

**-(i)bdi shakli** o'zlashtirmalikni ifodalash uchun ko'p qo'llanadi. Mazkur shakl alohida bir o'zi qo'llanganda o'zlashtirmalik va uning xabar manbai voqelanuvchi mikro- va makrokontekstlardan ayriminagina tahlil qilamiz. Bunda asosiy diqqat-e'tibor uning rus va nemis tillariga tarjimasini qiyoslab bayon qilishga qaratiladi.

Quyidagi misol bitta qo'shma gap ya'ni mikrokontekstdan iborat:

*Ha, aytganday, qaysi kuni Hakima kelgan edi, Qahramon bo'lishiga o'ttiz bir tonna yetmabdi* (62).

Birinchi sodda gap xabar manbai vazifasini bajarmoqda. Ixchamlik maqsadida nutq fe'li va uning egasi (*o'sha aytdi*) tejalgan. Xabar manbaining egasi atoqli ot (Hakima), kesimi bevosita kuzatganlik semasi belgilangan o'tgan zamon shakli (*kelgan edi*). So'zlovchi shu fe'ldan anglashilgan ish-harakatni bevosita kuzatgan. So'zlovchi tinglovchiga Hakimaning *qahramon bo'lishiga o'ttiz bir tonna yetmadi* degan fikridagi faqat *-di* qo'shimchani *-(i)bdi* bilan almashtiradi. Natijada sodda gapdan iborat o'zlashtirma xabar hosil bo'ladi. Bu *mikrokontekst minimal kontekstga* aylantirilganda ya'ni gapning egasi aniqlovchisi (*o'ttiz bir tonna*) bilan va kengaygan

to'ldiruvchi (*qahramon bo'lishiga*) tushirib qoldirilsa ham fe'l o'zagi anglatgan ish-harakatning o'zlashtirib bayon qilinganligi anglashilaveradi. Mazkur gap bo'laklari kesim vazifasidagi fe'lning valentligi bilan bog'liq bo'lib nutq vaziyati taqozo etgani bois qo'llangan. Ammo xabarning tugalroq bo'lishi uchun ham so'zlovchi va tinglovchi aniq-ravshan emas. Ularni aniqlash uchun *makrokontekst*, aniqrog'i oldingi gaplarga murojaat qilamiz. Oldingi gapdan so'zlovchining *Huriniso* ekanligi ayon bo'ladi. Undan oldingi abzasdan esa tinglovchining *Saida* ekanligi ma'lum bo'ladi. Binobarin, Huriniso boshqa nutq vaqti (momenti)da Hakimadan eshitgan xabarni o'zlashtirib ya'ni kesimning zamon, mayl va shaxs qo'shimchasini almashtirib Saidaga bayon qilmoqda. Mazkur o'zlashtirma xabarning kontekstual tahlili shundan iborat.

Endi ruscha tarjimadan o'zbekcha mikromatnga mos keladigan qismini qiyoslab ko'ramiz:

*А Ходжар – ты помниш ее, - кивнула она Таджихон – недавно приезжала к нам, говорят, что для звания Героя у нее всего тридцат одной тонны не хватило!* (144)

Tarjimaning grammatik jihatini asl nusxaga birmuncha mos desa bo'ladi. Chunki o'zbekcha o'zlashtirma gap sintaktik yo'l bilan ergash gap orqali berilgan, ergashtiruvchi bog'lovchi (*что*) qo'llangan. Kesimning shakli va boshqa bo'laklar ko'chirma gapdagidek, o'zgarmagan. Ammo xabar manbai o'zgartirilgan. Asl nusxada xabarni ushbu nutqiy amalda so'zlovchi bo'lgan shaxs (*Huriniso*) boshqa nutqiy amalda tinglovchi sifatida so'zlovchining o'zidan eshitgan. Tarjimada qo'llangan so'z (*говорят*) esa aniq bitta shaxsni anglatmaydi.

Nutqiy amal a'zo va ishtirokchilari ham asl nusxadan farq qiladi. Tarjimaga ko'ra tinglovchi Tojixon va u atoqli ot bilan ifoda etilgan. Asl nusxada esa tinglovchi Saida, u makrokontekstdan ma'lum bo'ladi. Tojixon uchinchi shaxs, nutqiy amal ishtirokchisi xolos. Asl nusxadagi tejamkorlik, ixchamlikka ham to'la rioya qilinmagan. Gap qo'shilgan, ayrim so'z o'zgartirilgan (*Hakima* o'rniga *Ходжар* deyilgan). Asl nusxadagi nohissiy bayon tarjimada hissiyotga o'zgargan. So'zlovchining subyektiv munosabati nolisoniy omil vositasida ifoda etilgan (yozuvda undov belgisi) va hokazo. Nemischa tarjima bilvosita bo'lgani uchun ruscha matndagi xatolar ko'pchiligi aynan takrorlangan. Jumladan, gap qo'shilgan, asl nusxa va ruscha matnda yo'q so'z (*mehnat – die Arbeit*) qo'llangan, bayon hissiy va b. Mikromatnda rus tilidagidek chiziq (tire) bilan kifoyalanmay qo'shtirnoq ham ishlatilgan. Xabar manbai vazifasida modal fe'l (*sollen*) kelgan. Chunki bu fe'l ma'nolaridan biri o'zlashtirmalik bo'lib, rus tilidagi *govoryat* fe'lga mos keladi. Uning 2-infinitiv bilan qo'llanishi o'zlashtirilgan ish-harakatning o'tgan zamonda ro'y berganligini ko'rsatish bilan izohlanadi [Krashennikova, 1958; 81].

*Und Chodshar – du yerinnerst dich doch an sie -, „wandte sie sich an Tadshichon,“ – sie hat uns kürzlich besucht – ihr sollen nur yeinunddreißig Tonnen für ihre Auszeichnung als Held der Arbeit gefehlt haben!* (35)

Quyidagi misol ham ikkita sodda gapli mikrokontekstdan iborat:

*Biroq Do'stmatov ustidan pravleniega ma'lumot tushdi: bu odam yangi uyga hali ham ko'chib kirmabdi* (159).

Bu misolda ham na nutq fe'li na uning ma'nodoshi bor. Xabar manbaining o'rni yuqoridagi mikrokontekstdagidek ya'ni bu vazifani birinchi gap bajaradi. Bu misolda ham xabarni so'zlovchiga aslida aniq shaxs(lar) yetkazadi. Ammo so'zlovchi milliy axloq-odob qoidalariga rioya qilgani bois nutqiy amal o'rni aniq aytishga imkon bermaydi. Makrokontekst aniqrog'i oldingi gaplardan muloqot o'rni majlis ekanligi ma'lum bo'ladi. Boshqacha aytganda, jamoa xo'jaligi rahbariyatiga *bu odam yangi uyga hali ham ko'chib kirmadi (yoki kirgani yo'q)* degan mazmunda ma'lumot tushadi. So'zlovchi shu gapni o'zlashtirib bayon qiladi. Buning uchun faqat kesimdagi *bevosita kuzatganlik* semasi belgilangan qo'shimcha (-di yoki -gani yo'q) ni o'zlashtirma xabar semasini ifodalash uchun xoslangan qo'shimcha (-ibdi) bilan almashtiradi xolos. Biroq o'zlashtirma xabar haqidagi ma'lumot to'liqroq bo'lishi uchun makrokontekstga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Oldingi gaplarda nutqiy amal o'rni o'z ifodasini topgani kabi so'zlovchining kolxoz raisi Qalandarov ekanligi, tinglovchi esa majlis ahli ekanligi ayon bo'ladi va hokazo.

Ruscha tarjima bevosita bo'lsa ham tarjimonlar yozuvchining ixcham, tejamkor uslubiga qat'iy rioya qilmaydi. Natijada asl nusxadagi bir so'z (Do'stmamatov)ga tarjimada sakkizta mustaqil va yordamchi so'z to'g'ri keladi.

*Но, как нам стало известно, один из этих товарищей, а именно товарищ Дустмаматов, до сих пор не хочет переезжать в новый дом (279).*

Yozuvchi Do'stmamatovning yangi uyga ko'chib kirmaganligi sababli keyingi makrokontekstga qoldirdi. Shu bois mikrokontekstda bitta qo'shma so'z bilan kifoyalanadi (*ko'chib kirmabdi*). Tarjimada esa *не хочет* so'zi qo'shilgan va hokazo.

Xabar manbai tarjimasi aksincha aniq. Tarjimonlar o'zlashtirmalik uchun shuning o'zi yetarli deb hisoblaganidan ergash gapli qo'shma gapdan emas, sodda gapdan foydalangan. Bu esa tarjimonlarning tejamkorlikka rioya qilganidan dalolat beradi.

Nemischa tarjima ko'p jihatdan ruscha mikromatnga mos. Jumladan, asl nusxada o'tgan zamon shakli orqali ifodalangan o'zlashtirma xabar nemis tilida rus tili kabi hozirgi zamon shakli (prezens) bilan ifoda etilgan.

Asl nusxada *allaqachon ko'chib kirish kerak yedi* degan fikr nazarda tutilgan bo'lsa tarjima matnlarda *haligacha ko'chib kirmayapti* degan ma'no anglashiladi. Bundan tashqari, bevosita tarjimada o'zlashtirma xabar ifodalanishining sintaktik xususiyati inobatga olinmagan. Bilvosita tarjimada bundan tashqari morfologik xususiyatidan ham voz kechilgan. Binobarin, bog'lovchi (*daß*)li yergash gap va o'zlashtirma xabarning morfologik belgisi bo'lgan mayl (kon'yunktiv) shakli qo'llanmagan. Ikkala tilda ham faqat lug'aviy vosita bilan kifoyalanilgan (*как нам стало известно – wie wir erfahren haben*):

*Wie wir aber erfahren haben, weigert sich keiner dieser Genossen, und zwar der Genosse Dustmamatow, das neue Haus zu beziehen (204).*

Endi o'zlashtirmalikning -(i)bdi qo'shimchasi orqali makromatnda ifodalanishiga bitta misol olib ko'ramiz:

*Bizning boboni juda yaxshi bilib olibsiz. U kishini partiya majlisida intizomga bo'ysundiribsiz. Sizni orqa qilib, xotinlar u kishini tanqid qilishibdi... A'zamjon bilan*

*Toshkentda ko‘rishgan edim, o‘sha gapirib berdi* (134).

Makromatn bir abzas, uchta sodda va bitta qo‘shma gapdan tuzilgan. Sodda gaplarda o‘zlashtirma xabar uch marta ifodalangan. Ikkita sodda gapda II shaxsning, bittasida III shaxsning fikri o‘zlashtirib bayon qilingan. Boshqacha aytganda ikki marta tinglovchining, bir marta o‘zga shaxsning fikri o‘zlashtirilgan. So‘zlovchi uchala gapda ham lisoniy vosita bilan ifodalalanmay nazarda tutilgan. Tinglovchini ifodalash uchun faqat qo‘shimcha (-siz) qo‘llangan. Ularning ikkalasi ham oldingi abzasning oxirgi gapida atoqli ot (*Kozimbek, Saida*) orqali voqelangan. Kozimbek so‘zlovchi, Saida tinglovchi. Ayni paytda u o‘zlashtirma xabar qaratilgan shaxs ya’ni ish-harakat subyekti. Uchinchi gapda o‘zlashtirma xabar o‘zga shaxslar (*xotinlar*) tomonidan amalga oshirilgan. Bu gapda kesimning sonini ko‘rsatish uchun ham qo‘shimcha (-ish) ham turdosh ot (*xotinlar*) qo‘llangan. Tejamkorlikka rioya qilinmagan ya’ni kesimdagi *ko‘plik* ko‘rsatkichi tejalmagan. Balkim ko‘plik semasini ta’kidlash maqsadida shunday yo‘l tutilgandir.

Abzasning oxiridagi qo‘shma gap o‘zlashtirma xabar manbai vazifasida kelgan. Undan so‘zlovchi Kozimbek o‘zlashtirib bayon qilgan uch qismli xabarni Toshkent shahrida A‘zamjondan eshitgan bo‘ladi. Demak, boshqa nutqiy amalda so‘zlovchi bo‘lgan shaxsning kasbi (muxbir ekanligi) esa keyingi ikkinchi abzasning birinchi gapidan ma’lum bo‘ladi. Xabar manbaining kesimi vazifasida nutq fe’li (*gapirib berdi*) kelgan. Kozimbekning A‘zamjon bilan suhbatini to‘liq keltirilmaganidan uchinchi xabardan keyin ko‘p nuqta qo‘yilgan. Bundan tashqari mazkur abzas boshidagi chiziq (tire) uch qismli o‘zlashtirma xabar suhbatning tarkibiy qismi ekanligini ko‘rsatish maqsadida qo‘yilgan. Ushbu qisqacha tahlildan ko‘rinadiki o‘zlashtirma xabar haqidagi ma’lumotning bir qadar to‘liq bo‘lishi uchun to‘rt gapli abzas ham yetarli bo‘lmasligi mumkin yekan.

Endi asl nusxadagi makromatnning bevosita tarjimasiga murojaat qilamiz:

*Козимбек перестал краснеть и ещё раз повторил, что Сауда, кажется, неплохо изучала его отца.*

– *До меня ещё по дороге сюда дошёл слух, будто бы, когда он ушел без разрешения, вы заставили его вернуться на партийное собрание, и, уж поверьте мне, я то знаю, что заставит моего папашу совершит такой вполне нормальный для другого человека поступок – значит, сделает большое дело! А потом мне говорили, что, почувствовав вашу поддержку, тут даже женщины критиковали его. Ну, а это уж вообще не было от сотворения мира! А знаете, кто мне все это рассказал? Аъзамджан! Я встретился с ним по дороге* (242).

Ko‘rinib turibdiki, tarjimonlar yozuvchi uslubiga erkin yondashganligidan shaklan o‘zgarish ko‘p. Asl nusxadagi besh qatorli abzasdan o‘n ikki qatorli ikkita abzas hosil bo‘lgan. O‘zgartirilgan va qo‘shilgan so‘z, gap ancha. Jumladan, *A‘zamjon bilan Toshkentda ko‘rishgan edim* gapini *ya’ni uchrashgan edim* deb o‘zgartirilgan. *A‘zamjon* so‘zi avval ruscha talaffuzga moslab *Аъзамджан* shaklida yozilgan, keyin *с ним* deb takrorlangan. Bulardan ikkita oldingi gap asl nusxada yo‘q, to‘liq qo‘shilgan. Buning ustiga u hissiy bo‘yoq bilan yo‘g‘rilgan. Bunday bayon usuli makrokontekstdagi aksar jumlagacha xos. Bu maqsadda mubolag‘a, antiteza, ehtiros



(yozuvda undov belgisi) kabi ta'sirchan badiiy vosita va unsurlardan foydalanilgan. Asl nusxada atigi bitta nutq fe'li (*gapirib berdi*) qo'llangan bo'lsa tarjimada *повторил, слух, говорили, рассказал* kabi ot va fe'llar ishlatilgan. Asl nusxadagi ixcham va ketma-ket kelgan o'zlashtirma gaplar kengayib kelgan, bir-biridan ajratilgan. Ikkitasi bog'lovchi (*chto*)li ergash gap bilan o'girilgan-u bittasining shakli o'zgartirilgan va b.

Nemischa tarjima bilvosita bo'lganidan rus tarjimonlari yo'l qo'ygan kamchilik va qusurlar aynan takrorlangan. Jumladan faqat abzas soni emas, qator soni ham teng. O'zlashtirmalikning sintaktik belgisi bo'lgan bog'lovchi (*daß*)li ergash gap ikkita. O'zlashtirmalikning morfologik belgisi bo'lgan kon'yunktiv zamon shakli bir marta bog'lovchili va bir marta bog'lovchisiz ergash gapda qo'llangan. Shuni e'tirof etish joizki, ikkala tarjimada ham Kozimbekning Saidaga murojaatida asl nusxadagidek uch o'rinda hurmat shakli ishlatilgan.

Ruscha tarjima va asl nusxa bilan qiyoslab ko'rish uchun nemischa makromatnni to'liq keltiramiz:

*Von Kasimbeks Gesicht wich die Röte, und yer wiederholte nochmals, daß sie, Saida, den Vater wohl nicht schlecht kenne.*

*“Schon auf dem Wege her habe ich gehört, Sie hätten ihn zur Rückkehr veranlasst, als yer die Versammlung ohne Yerlaubnis verließ. Glauben Sie mir, ich weiß, was das bedeutet, Vater zu yeinem solchen Schritt zu veranlassen, der jedem anderen als völlig normal yerscheint. Ich habe auch gehört, daß die Frauen ihn kritisiert haben, als sie Ihre Unterstützung spürten. Kaum vorstellbar! ... – Das hat yes seit Yerschaffung der Welt noch nicht gegeben! Und wissen Sie, wer mir das alles yezählt hat? Agsamdshan! Ich traf ihn unterwegs” (157-158).*

Endi to'liqsiz fe'l bilan hosil bo'luvchi **-gan ekan shaklini** tahlil qilamiz:

*O'shanda gapni shu boshlab, ayollar qiy-chuv ko'tarishgan ekan* (164).

Bu misol mikrokontekst bo'lib *-gan ekan shaklining o'zlashtirma xabar va o'tgan zamon* semalari namoyon bo'lgan. Bu semalarning birinchisi to'liqsiz fe'l bilan, ikkinchisi qo'shimcha (*-gan*) orqali ifodalanmoqda. Mikrokontekstdagi birinchi so'z (*o'shanda*) ham zamon semasiga daxldor. U ko'chirma xabarning hozir emas, ilgari boshqa bir nutqiy amalda o'zlashtirib bayon qilinganini bildiradi.

To'liqsiz fe'l o'zlashtirilgan xabarning sintaktik jihatdan notugal ekanligini ham anglatadi. Boshqacha aytganda, kesimdan anglashilgan ish-harakat borligi sezilib turadi. Shu bois o'zlashtirma xabardan keyin vergul qo'yib fikr davom ettirilgan (hozir ham shunday bo'larmikin?). *O'zlashtirma xabar* semasi bilan bog'liq yana bir qator kommunikativ xususiyatni aniqlash uchun makrokontekstga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Chunonchi, suhbat o'rni umumiy majlis ekanligi ancha oldin (158) ma'lum bo'ladi (*Navbatdagi umumiy majlis bir necha kundan keyin chaqirildi*). O'zlashtirma gapdan bitta oldingi gapda so'zlovchi *Qalandarov*, tinglovchi *ayollar* ekanligini bilib olamiz. Shulardan biri *Oynisa* ismli ayol ekanligi ham mikromatndan bitta gap oldinda ifodasini topgan. Mikromatnda u olmosh (*shu*) bilan ifoda etilgan. Ammo so'zlovchi (*Qalandarov*) xabarni aynan kimdan eshitib o'zlashtirib bayon qilganligi noma'lumligicha qolgan. Demak, yozuvchining kommunikativ maqsadiga ko'ra buni lisoniy vosita bilan ifodalash nazarda tutilmagan va hokazo.

Ruscha tarjima bevosita bo'lsa ham asl nusxadagi o'zlashtirma gapning na mazmuni na shakli o'z ifodasini topgan. Boshqacha aytganda, mikro- va makrokontekstda xabarni o'zlashtirib bayon qilinganligini ko'rsatuvchi na lug'aviy, na sintaktik va na morfologik vosita qo'llangan. Natijada, mikromatndagi xabarni so'zlovchi bevosita o'zi kuzatib, guvohi bo'lib bayon qilayotgandek tasavvur hosil bo'ladi:

*Да, это была она – Ойниса, хорошо известная на вес район звеневая, это она в дни отъезда Каландарова, на лекции для женщин, первая открыла ему огонь (285).*

Nemis tilida o'zlashtirmalikni ko'rsatuvchi ergash gap, ergashtiruvchi bog'lovchi (*daß*), mustaqil sodda gap, mayl (*kon'yunktiv*) zamon shakli va lug'aviy vositalar bo'la turib ularning birortasidan foydalanilmagan. Buning sababi ruscha tarjima asos qilib olinganligidir. Tarjimon hatto so'zlovchi (Qalandarov) mazkur o'zlashtirma gap aytilganda, uning guvohi bo'lmaganligini bevosita ko'rsatuvchi so'zlar (*während der Abwesenheit Kalandarows*)ga ham e'tibor bermaydi. Ruscha matndan farq bitta. Makromatndagi *zvenevaya* so'zi *eine Brigadierin* deb o'zgartirilgan, xolos:

*Ja, es war Ojnissa, eine in der ganzen Gegend bekannte Brigadierin, die seinerzeit, während der Abwesenheit Kalandarows, auf der Frauenversammlung als erste das Feuer gegen ihn eröffnet hatte (213).*

## MULOHAZALAR

Nazariy tilshunoslik asoschisi V.Humboltning yozishicha tilning ayrim unsurida uning xarakterli belgilari mujassam bo'ladi. Haqiqatan shundayligini bilish maqsadida to'rtta tilda bitta fe'lning o'zagini qiyoslab ko'rsa bo'ladi: *qr' – чума – les – o'qi*. Arab tilida o'zak uchta undoshdan iborat bo'lib faqat grammatik emas, lug'aviy ma'no ham anglatmaydi. Unga har qaysi undoshdan keyin bitta unli qo'shilsa birdaniga lug'aviy va bir nechta grammatik ma'no namoyon bo'ladi. O'tgan zamon, uchinchi shaxs, birlik shular jumlasidan: *qara'a – o'qidi*. Rus tilida fe'lning o'zagi faqat lug'aviy (*atash*) ma'no anglatadi. Grammatik ma'no ifodalanishi uchun qo'shimcha talab etiladi: *чумаи – o'qi*. Nemis tilida o'zakdan lug'aviy ma'no anglashilib grammatik ma'no unli o'zgarishi bilan ifoda etiladi: *lies – o'qi*. O'zbek tilida esa tamoman boshqacha holga duch kelamiz. Fe'lning o'zagi (o'qi)dan avvalo rus tilidagidek lug'aviy ma'no ya'ni harakatning insonga xos faoliyat ekanligi anglashiladi. Bundan tashqari, rus va nemis tilidagidek ega, to'ldiruvchi, hol bilan birikish imkoniyati (*valentligi*) sezilib turadi. Shu bilan birga, o'zakdan o'nga yaqin grammatik ma'no anglashiladi. Shaxs (*tinglovchi*), son (*birlik*), mayl (*buyruq*), zamon (*kelasi*), bo'lishlik (*tasdiq*), hurmat (*ga betaraflik*), nisbat (*bosh shakl*), tarz, aspekt (*harakatning tugallanganligi va hokazoga betaraflik*) hamda his-tuyg'uga betaraflik (*ifodalanishi urg'u va hokazoga bog'liq*) shular jumlasidandir. Fe'lning o'zagi bundan tashqari kommunikativ vazifani ham bajaradi. Bitta o'zi fikr ifodalab tinglovchini o'zakdan anglashilgan harakatni bajarishga undaydi. Predikativlik to'liq ifodalanganidan buyruq gap bo'lib keladi: *O'qi*. Shuni ta'kidlash lozimki, hozirgi o'zbek adabiy tilida fe'lning o'zagi eng kichik gap bo'lib gapning boshqa barcha ko'rinishi shundan qo'shimcha va boshqa vositalar

bilan hosil bo‘ladi. Ko‘rinadiki, hozirgacha nol ko‘rsatkichli shakl deb qaralgan vosita ham lug‘aviy ham grammatik ham kommunikativ birlik vazifasini bajaradi.

Bundan tashqari, rus, nemis tillarida lug‘aviy va grammatik ma‘no alohida-alohida vosita bilan ifodalansa arab tilida lug‘aviy ma‘no ifodalanishida ham undosh ham unli ishtirok etib grammatik ma‘no faqat unli vositasida namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilida esa faqat lug‘aviy va grammatik ma‘no emas, kommunikativ ma‘no ham biror qo‘shimcha vositasiz felning o‘zagidan anglashilaveradi. Buning asosiy sababi shuki mazkur xalqlarning borliqni idrok qilishi aniqrog‘i milliy tillarning shakllanish davrida borliqdagi voqea-hodisalarning tushuncha va fikrga aylanish tarzi bir xil bo‘lmagan. Arab (som) va o‘zbek (turkiy) xalqlari tejamkorlik yo‘lini tutgan bo‘lsa slavyan va german xalqlari notejamkorlik yo‘lidan borgan. Boshqa so‘z turkumlarida ham shunga o‘xshash farq-tafovut mavjud [Zikrillaev, 2018].

Ruhij-ijtimoiy yoki idealistik-materialistik yo‘nalishga oid tadqiqotlarda asoslanilishicha tejamkorlik o‘zbek tilida lisoniy birliklarning barchasiga turli ko‘rinish va darajada xos. Jumladan, qo‘shimchaning tejab ishlatilishi, qisqaruv [Eltazarov, 2004], birikmada so‘z qo‘llanmasligi, gapda mustaqil va yordamchi so‘z ishlatilmasligi, sodda va qo‘shma gapdagi shakliy hamda mazmuniy nomuvofiqlik, sodda gap bilan ergashgan qo‘shma gap ma‘nodoshligi, o‘zlashtirma xabar, uyushgan gap, presuppozitsiya, implikatsiya hodisasi, to‘liqsiz gapning barcha turi tejamkorlikning turlicha ko‘rinishidir. Shularga asoslanib biz ham o‘zbek adabiy tili qurilishining bosh xususiyatini *tejamkorlik* deb ataymiz.

## XULOSA

O‘zlashtirish sintaktik va morfologik yo‘l bilan hosil bo‘ladi. Morfologik yo‘l bilan hosil bo‘ladigan o‘zlashtirish qiyoslanayotgan tillardan faqat o‘zbek va nemis adabiy tillariga xos, rus tilida esa o‘zlashtirmalikning faqat birinchi turi ya‘ni sintaktik yo‘l bilan hosil bo‘ladigani xosdir. Milliy tillar tuzilishiga baho berishda dunyoni idrok qilishning o‘ziga xos usullari borligini e’tirof etishga to‘g‘ri keladi. Tili flektiv deb ataluvchi xalqlar ruhiyati borliqni tilga aylantirishda ikki bosqichli sintezdan foydalanadilar. Tili agglyutinativ deb ataluvchi xalqlarda esa sintez birdaniga ro‘y beradi. Ikkala bosqich xususiyati ham o‘zakda voqelanadi. Shunga asoslanib biz ham o‘zbek adabiy tili qurilishining bosh xususiyatini *tejamkorlik* deb ataymiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov, G., & Ma‘rupov, A. (1958). *O‘zbek tilidan qo‘llanma*. Toshkent.
2. Admoni, V.G. (1973). *Sintaksis sovremennogo nemetskogo yazika: sistema otnosheniy i sistema postroeniya*. Leningrad.
3. Admoni, W.G. (1972). *Der deutsche Sprachbau*. Leningrad.
4. Asqarova, M. (1960). *Hozirgi zamon o‘zbek tilida qo‘shma gaplar*. Toshkent.
5. Asqarova, M. (1961). *Qo‘shma gaplarning ko‘chirma gapli turi haqida*. Toshkent.
6. Eisenberg, P., Gelhaus, H., Wellmann, H. (2008). *Duden: Die Grammatik*. Mannheim: Duden Redaktion.
7. Eltazarov, J. (2004). *Tildagi tejamkorlik tamoyili va qisqaruv*. Samarqand.
8. Guliga, E.V., & Natanzon, M.D. (1957). *Grammatika nemeskogo yazika*. Moskva.

9. Gumboldt, V. (1984). *Izbrannie trudi po yazikoznaniyu*. Moskva: Progress.
10. Gvozdev, A.N. (1968). *Sovremenniy russkiy literaturniy yazik*. Moskva.
11. *Hozirgi o'zbek adabiy tili II: sintaksis*. (1966). Toshkent: "Fan" nashriyoti.
12. Humboldt von, V. (1907). *Gesammelte Schriften*. Berlin
13. Iminov, A. (1990). O'zlashtirma gap bormi? *O'zbek tili va adabiyoti jurnali*, 3(186), 61-66.
14. Israilov, A. (1971). *Chujaya rech v sovremennom uzbekskom literaturnom yazike*. Ashxabad.
15. Jumayev, E. (2020). -ibdi shaklining ma'no xususiyatlari. *O'zbek tili va adabiyoti jurnali*, 6(14), 102-107.
16. Jumayev, E. (2021). Ismiy kesim va o'zlashtirma xabar. *Til va adabiyot ta'limi jurnali*, 5(9), 116-118.
17. Kachar, A. (1961). *Sekretär Saida*. Berlin.
18. Kaxxar, A. (1972). *Ptichka-nevelichka*. Tashkent: Izdatel'stvo Gafura Gulyama.
19. Khudoev, S. (2023). The riddle genre in world literature and the history of research on it. *International Journal of Language Learning and Applied Linguistics*, 1, 13-15.
20. Kononov, A.N. (1960). *Grammatika sovremennogo uzbekskogo literaturnogo yazika*. Moskva.
21. Krashennikova, Y.A. (1958). *Modalnie glagoli i chastisi v nemetskom yazike*. Moskva.
22. Krushelnitskaya, K.G. (1967). Grammaticheskie znacheniya v plane vzaimootnosheniya yazika i mishleniya. *Yazik i mishlenie*, 7(51), 214-224. Moskva: Nauka.
23. Mahmudov, N., & Nurmonov, A. (1995). *O'zbek tilining nazariy grammatikasi: sintaksis*. Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti.
24. Moskalskaya, O.I. (1981). *Grammatika teksta*. Moskva: Visshaya shkola.
25. Namazov, K. (1975). Pryamaya i kosvennaya rech kak chleni binarnogo oppozitsionnogo ryada. *Trudi Samarkandskogo gosudarstvennogo universiteta*, 7(269), 191-198. Samar-kand.
26. Nazarova, X. (1959). *Eski o'zbek yozma yodgorliklarida ko'chirma gaplarning qo'llanishi*. Toshkent.
27. Nurmonov, A., & Mahmudov, N. (1992). *O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi*. Toshkent.
28. Qahhor, A. (1988). *Sinchalak*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
29. Ruziev, Y. (2022). O'zbek tilshunosligida ko'chirma va o'zlashtirma nutqning talqin-u tavsifi. *Scientific Reports of Bukhara State University*, 4(92), 68-77.
30. Ruziev, Y. (2022). O'zbek tilida o'zlashtirma nutq va gap. *Innovative Development in Educational Activities*, 1(1), 71-76.
31. Ruziev, Y. (2022). Rus tilida ko'chirma va o'zlashtirma nutq. *Ilm sarchashmalari*, 11, 141-145.
32. Ruziev, Y. (2023). Noqardosh tillarda ikkinchi tur o'zlashtirmalik va mikromatn. *Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti*, 6(94), 121-126.
33. Ruziev, Y. (2023). O'zbek tilida birinchi tur o'zlashtirmalik va gap. *Buxoro davlat univer-siteti ilmiy axboroti*, 5(93), 80-86.
34. Safarov, Sh. (2015). *Til nazariyasi va lingvometodologiya*. Toshkent: "Bayoz" nashriyoti.
35. Saidniyazov, A. (1975). *Sintaksicheskie osobennosti konstruksii s pryamoy rechyu v sovre-mennom uzbekskom yazike*. Tashkent.
36. Saidov, S. & Zikrillaev, G'. (1973). *Nemis tili grammatikasi*. Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti.
37. Tuxsanov, M. (1987). Mikrotekst i sistema sredstv vyrajeniya yego kogerentnosti v uzbekskoy xudojestvennoy rechi. *Dis. kand. filol. nauk*. Buxara.
38. Vinogradov, V.V. (1960). *Grammatika russkogo yazika*. Moskva.
39. Zikrillaev, G'.N. & Jumayev, E. (2019). Xorijiy tilshunoslikda matn va unga aloqador ma-salalar talqini. *Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti*, 3, 79-88.
40. Zikrillayev, G'.N. (2004). *Istiqlol va adabiy til*. Toshkent: "Fan" nashriyoti.

41. Zikrillayev, G'. (1990). Semantiko-funksionalnoe issledovanie sistemi predikativnix kategoriy uzbekskogo glagola. *Avtoref. dok. diss. filol. nauk.* Tashkent.
42. Zikrillayev, G'. (2018). *Ruh va til.* Toshkent: "Fan" nashriyoti.
43. Zikrillayev, G'. (1990). Semantiko-funksionalnoe issledovanie sistemi predikativnix kategoriy uzbekskogo glagola. *Dokt. diss. filol. nauk.* Tashkent.
44. *O'zbek tili grammatikasi: Sintaksis.* (1976). Toshkent: "Fan" nashriyoti.
45. G'ulomov, A., & Asqarova, M. (1987). *Hozirgi o'zbek adabiy tili: sintaksis.* Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti.
46. Sharipov, M. (1955). *Ko'chirma va o'zlashtirma gap.* Toshkent.
47. Shvedova, N.Y. (1970). *Grammatika sovremennogo russkogo literaturnogo yazika.* Moskva: Nauka.

## REFERENCES

1. Abdurahmanov, G., & Marupov, A. (1958). *Guide from the Uzbek language.* Tashkent.
2. Admoni, V.G. (1973). *Syntax of modern German: relationship system and construction system.* Leningrad.
3. Admoni, W.G. (1972). *The German language structure.* Leningrad.
4. Askarova, M. (1960). *Conjunctions in modern Uzbek.* Tashkent.
5. Askarova, M. (1961). *About the participle type of compound sentences.* Tashkent.
6. Eisenberg, P., Gelhaus, H., Wellmann, H. (2008). *Duden: The Grammar.* Mannheim: Duden Redaktion.
7. Eltazarov, J. (2004). *The principle of parsimony and reduction in language.* Samarkand.
8. *Grammar of the Uzbek language: syntax.* (1976). Tashkent: Publishing House of 'Science'.
9. Guliga, E.V., & Natanzon, M.D. (1957). *Grammar of the German language.* Moscow.
10. Gulomov, A., & Askarova, M. (1987). *Modern Uzbek literary language: syntax.* Tashkent: Publishing House of 'Teacher'.
11. Gvozdev, A.N. (1968). *Contemporary Russian literary language.* Moscow.
12. Humboldt von, W. (1907). *Collected scriptures.* Berlin
13. Humboldt, W. (1984). *Selected works on linguistics.* Moscow: Progress.
14. Iminov, A. (1990). Is there a catchphrase? *Journal of the Uzbek Language and Literature*, 3(186), 61-66.
15. Israilov, A. (1971). *Indirect speech in the modern Uzbek literary language.* Ashgabat.
16. Jumayev, E. (2020). Features of the meaning of the form -ibdi. *Journal of the Uzbek Language and Literature*, 6(14), 102-107.
17. Jumayev, E. (2021). Nominative participle and possessive message. *Journal of Language and Literature Education*, 5(9), 116-118.
18. Kakhar, A. (1961). *Secretary Saida.* Berlin.
19. Kakhar, A. (1972). *Little bird.* Tashkent: Publishing House of Gafur Gulam.
20. Kakhar, A. (1988). *Sinchalak.* Tashkent: Gafur Gulam Publishing House of Literature and Art.
21. Khudoev, S. (2023). The riddle genre in world literature and the history of research on it. *International Journal of Language Learning and Applied Linguistics*, 1, 13-15.
22. Kononov, A.N. (1960). *Grammar of the contemporary Uzbek literary language.* Moscow.
23. Krashennikova, Y.A. (1958). *Modal verbs and verbs in German.* Moscow.
24. Krushelnitskaya, K.G. (1967). Grammatical meanings in terms of the relationship between language and thinking. *Language and Thinking*, 7(51), 214-224. Moscow: Science.
25. Mahmudov, N., & Nurmonov, A. (1995). *Theoretical grammar of the Uzbek language: syntax.* Tashkent: Publishing House of 'Teacher'.
26. *Modern Uzbek literary language II: syntax.* (1966). Tashkent: Publishing House of 'Science'.
27. Moskalskaya, O.I. (1981). *Text grammar.* Moscow: Higher School.
28. Namazov, K. (1975). Direct and indirect speech as members of a binary opposition series. *Proceedings of Samarkand State University*, 7(269), 191-198. Samarkand.



29. Nazarova, H. (1959). *The use of quotations in old Uzbek written monuments*. Tashkent.
30. Nurmonov, A., & Mahmudov, N. (1992). *Meaningful syntax of the Uzbek language*. Tashkent.
31. Ruziev, Y. (2022). Extracted and assimilated speech in Russian. *Journal of Science*, 11, 141-145.
32. Ruziev, Y. (2022). The interpretation and description of the quoted and assimilated speech in Uzbek linguistics. *Scientific Reports of Bukhara State University*, 4(92), 68-77.
33. Ruziev, Y. (2022). Uzbek speech and conversation. *Innovative Development in Educational Activities*, 1(1), 71-76.
34. Ruziev, Y. (2023). In the Uzbek language, the first type of assimilation and speech. *Scientific Information of Bukhara State University*, 5(93), 80-86.
35. Ruziev, Y. (2023). The second type of acquisition and microtext in unrelated languages. *Scientific Information of Bukhara State University*, 6(94), 121-126.
36. Safarov, Sh. (2015). *Language theory and linguomethodology*. Tashkent: Publishing House of 'Bayoz'.
37. Saidniyazov, A. (1975). *Syntactic features of constructions with direct speech in modern Uzbek language*. Tashkent.
38. Saidov, S. & Zikrillayev, G. (1973). *German grammar*. Tashkent: Publishing House of 'Teacher'.
39. Sharipov, M. (1955). *Extracted and assimilated sentence*. Tashkent.
40. Shvedova, N.Y. (1970). *Grammar of the contemporary Russian literary language*. Moscow: Science.
41. Tukhsanov, M. (1987). Microtext and the system of means of expressing its coherence in Uzbek literary speech. *Dis. cand. philol. scien.* Bukhara.
42. Vinogradov, V.V. (1960). *Grammar of the Russian language*. Moscow.
43. Zikrillayev, G.N., & Jumayev, E. (2019). Interpretation of text and related issues in foreign linguistics. *Scientific Information of Bukhara State University*, 3, 79-88.
44. Zikrillayev, G.N. (2004). *Independence and literary language*. Tashkent: Publishing House of 'Science'.
45. Zikrillayev, G. (1990). Semantics-functional study of the system of predicative categories of the Uzbek verb. *Abs. DSc thes. philol. scien.* Tashkent.
46. Zikrillayev, G. (1990). Semantics-functional study of the system of predicative categories of the Uzbek verb. *DSc thes. philol. scien.* Tashkent.
47. Zikrillayev, G. (2018). *Spirit and language*. Tashkent: Publishing House of 'Science'.